

Nazarova, M. X. (2025). The Translation of Expressive Means in “The Young Werther's Sufferings” by Goethe. *The Delhi University Magazine. Series: The Humanities and the Social Sciences* 4: 29-39.

The Translation of Expressive Means in “The Young Werther's Sufferings” by Goethe

MASHHURA NAZAROVA¹

Gulistan State University

ABSTRACT

The article is dedicated to the description of the ways of expressive means, comparative words and word combinations in Uzbek translation of the novel “The Young Werther's Sufferings” by German writer Goethe. In the process of translation, it is important to maintain the poetic expression in accordance with the original work. The article also focuses on the expression of figurative meaning in translation and the semantic coherence of the content.

Keywords: Goethe, expressive means, compare, qualify, translation, poetic expression, semantic coherence.

I.V. Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” asarida tasviriy vositalar tarjimai

MASHHURA NAZAROVA

Guliston davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada nemis yozuvchisi Iogann Volfgang Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani haqida va ushbu asardagi tasviriy vositalar, xususan, o’xshatish va sifatlashlarning o’zbek tilida qanday yoritib berilganligi

¹ PhD Student, Department of the English Language and Literature, Gulistan State University, 4th microregion, Syrdarya region, Gulistan 120100, Uzbekistan. Email: nmashxura@mail.ru

xususida soʻz boradi va romanning asl nusxasi va oʻzbek tilidagi tarjimalari tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida poetik ifodaning asliyatga mosligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada tasviriy vositalarning tarjimadagi ifodalanishi va mazmuniy uygʻunlikka eʼtibor qaratiladi.

Kalit soʻzlar: Gyote, tasviriy vosita, oʻxshatish, sifatlash, tarjima, poetik ifoda, mazmuniy uygʻunlik.

I. KIRISH

Tarjima xalqlar oʻrtasida adabiy va madaniy aloqalarni yoʻlga qoʻyishda asosiy koʻprik vazifasini bajaradi. Badiiy tarjima tufayli jahon adabiyotining juda koʻp asarlari oʻzbek adabiyotining mulkiga aylanib, oʻzbek kitobxonlarining mehrini qozonishga ulgurgan. Bunga misol qilib, kitobxonlar tomonidan sevib oʻqiladigan, oʻzbek tiliga tarjima qilingan koʻplab asarlarni aytib oʻtishimiz mumkin

Shunday asarlar sirasiga kiruvchi nemis yozuvchisi Iogann Volfgang qalamiga mansub, oʻzbek tiliga bevosita nemis tilidan tarjima qilingan asar “Yosh Verterning iztiroblari” asardagi tasviriy vositalar ifodalanishi va ularning tarjimalari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani – bu epistoliar usulida yozilgan ahamiyatga molik asarlardan biri boʻlib, unda ulkan bir muhabbat tarixi yoritib berilgan. Engels soʻzi bilan aytganda: Gyote ishqiy fabula bilan yoʻgʻrilgan oddiygina, sentimental roman deb nomlab boʻlmaydigan Verterni yoza turib, ulugʻ qahramonona ishlardan birini qildi.

Johann Volfgang fon Gyote adabiyotning buyuk namoyandalaridan biri boʻlib, uning “Yosh Verterning iztiroblari” romani insoniy tuygʻular va kechinmalarni tasvirlashdagi mukammalligi bilan ajralib turadi. Asarda qoʻllanilgan metafora, epiteta, qiyoslash kabi tasviriy vositalar asar mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Ushbu tasviriy vositalarning boshqa tillarga, xususan, oʻzbek tiliga tarjima qilinishida asliyatga yaqinlik va maʼnaviy uygʻunlikni saqlash tarjimon oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolaning maqsadi “Yosh Verterning iztiroblari” asaridagi tasviriy vositalarning

o'zbek tiliga tarjima jarayonida qanday talqin qilinishini ilmiy yondashuv orqali tahlil qilishdir.

II. MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TANQIDIY TAHLILI

Badiiy-tasviriy vositalar muallifga tasvirlangan voqea-hodisalarni muayyan o'ziga xos xususiyatlar bilan ta'minlashga, badiiy obraz yaratishga, o'quvchining badiiy asar olamiga kirib borishiga, hamda muallif niyatini ochib berishga, ularga yaxshiroq baho berishga yordam beradi. Tasviriy vositalarni o'rgangan ilk tilshunos olimlar Gory va Trasimaxdir. Keyinchalik tilshunoslikning estetik nazariyalari Aristotel tomonidan ishlab chiqilgan². Badiiy asar tilida tasviriy vosita juda qadimiy va keng qo'llanuvchi lingvistik xususiyatdir. Unda tilning rang-barang uslubiy imkoniyatlari o'z ifodasini topadi. Davrlar o'tishi bilan ijtimoiy-siyosiy hayotda yangilanish bo'lgani sari badiiy tilda ham yangicha jilolar paydo bo'ladi, tasviriy vositalar yangicha mazmun kasb etadi, tilning o'ziga xos uslubiy buyoqlarini namoyon etadi.

Badiiy-tasviriy vositalarni o'rganish jarayonida shu sohada izlanish olib borgan ustozlarning adabiyotlardagi ayrim manbalarni keltirib o'tmoqchimiz. Adabiyotshunos Erkin Xudoyberdiyevning fikriga ko'ra, badiiy asardagi har bir so'z tasviriy vosita hisoblanishi mumkin, chunki, u asar mazmunini ifodalashga xizmat qiladi. Yozuvchi biror asarni yozishda undagi voqealar rivojini aks ettirishda zarur so'z va iboralarni ma'no mazmuniga e'tibor berib, o'z o'rnida to'g'ri qo'llash uchun tinimsiz mehnat qiladilar. Tasviriy-ifodaviy vositalar va tilning maxsus leksik imkoniyatlari nihoyatda ko'pchilikni tashkil qiladi³.

Avvalo, tasvir yaratishning leksik vositalari deb ataladigan troplardan foydalanishga to'xtalamiz. Tadqiqotchilar trop (yunoncha tropos – burilish, nutq burilishi)ni ba'zan ma'no ko'chirish deb ataladigan nomning ko'chirilishi deb bilishadi, bu so'z, ibora, jumlaning an'anaviy ravishda bitta ob'ektni (hodisalar, hodisa) nomlashidan iborat. jarayon, xususiyat), ma'lum nutq vaziyatlarda mazmunli yoki semantik munosabatlarning birinchi yoki boshqa shakllari bilan bog'liq bo'lgan boshqa

²Знаменская Т.А. Стилистика английского языка. Основы курса. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С.37.

³ Erkin Xudoyberdiyev., Adabiyotshunoslikka kirish., Sharq nashriyoti-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.,Toshkent.2008.

ob'ekt, hodisa va hokazolarni belgilash uchun ishlatiladi. Shuning uchun V.V. Vinogradov ta'kidlaganidek, obrazlilik, avvalambor, so'zlarning majoziy qo'llanilishining har xil turlari, so'zlar va iboralarning majoziy ma'nosini shakllantirishning turli usullari kombinatsiyasidir. Troplarda majoziy belgilarning vazifasi nominatsiya funktsiyasidan ustundir⁴.

L.A. Vvedenskaya troplarga quyidagi ta'rifni beradi: "Troplar - bu majoziy ma'nodagi nutq va so'zlarning burilishlari, ifodalilik va majozilikni saqlaydi"⁵. Ular ikkita ma'noning bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi: lug'at va kontekstli mavzu-mantiqiy. Shu sababli tropik so'zlarni tushunish murakkab jarayon bo'lib, uch komponent – tropning lug'aviy ma'nosi, kontekstual ma'nosi va matndagi boshqa so'zlarning ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash bilan birga keladi. Shunday qilib, troplar - bu ob'ektni yoki uning xususiyatini uning mohiyatiga ko'ra unga xos bo'lgan xususiyatlarga ko'ra emas, balki ular keltirib chiqaradigan assotsiatsiyalarga ko'ra nomlaydigan stilistik jihatdan belgilangan so'zlar yoki iboralar. Trop leksik birlikning an'anaviy qo'llanilishida taqdim etilgan tushuncha va badiiy nutqda maxsus stilistik vazifani bajarayotganda bir xil birlik tomonidan berilgan tushunchani taqqoslashga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, qaysidir ma'noda bir-biriga yaqin ko'rinadigan ikki tushunchaning o'ziga xos taqqoslanishi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda troplarni tarjima qilish muammosi alohida qiziqish uyg'otadi, chunki turli tillarning stilistik tizimlarining milliy xususiyatlari tufayli tarjima ko'pincha tarjimonlarga qiyinchiliklar tug'diradi. Tilning odatiy obrazli vositalarining ma'nolari majmui tilning obrazli tuzilishini tashkil etuvchi til madaniyatining tipik obrazli ko'rinishlarini aks ettiradi. Bu obrazli tasvirlar, bir tomondan, xalqning madaniy va tarixiy tajribasini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, ma'lum bir til jamoasi uchun obrazli assotsiatsiyaning individual stereotip modellarining til qobiliyatida yotadi. Lekin muallif yaratgan obraz qanchalik murakkab bo'lmasin, bizningcha, tarjimada asl nusxaning qiyofasi saqlanib qolishi zarur. Ko'pgina olimlar tarjimon qurilmaning o'zi emas, balki uning funktsiyasini takrorlashga intilishi kerak degan fikrni ta'kidlaydilar.

⁴ Vinogradov. Nazariya haqida, 1971, 4

⁵ Vvedenskaya. Rus, 2004, 164

III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

I.V. Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romanida tasviriy vositalar tarjimasi adabiyotshunoslikning muhim mavzularidan biridir. Chunki tarjima jarayonida asarning badiiy xususiyatlarini, muallifning uslubini va tasviriy vositalarini asliyatga yaqin holda yetkazish tarjimon mahoratini ko‘rsatadi. Asarda ishlatilgan metafora, metonimiya, personifikatsiya, epitet, o‘xshatish kabi tasviriy vositalar tarjimada qay darajada saqlanganligini o‘rganish. Masalan, Verterning tabiatga bo‘lgan munosabatida personifikatsiya va simvolika ko‘p uchraydi. Tabiat va inson ruhiyati bir-biriga uyg‘un tarzda tasvirlangan. Tarjima jarayonida bu uyg‘unlikni qanday saqlab qolish mumkinligini tahlil qilish zarur.

Tadqiqot ob‘ekti va metodi qilib, o‘zbek tiliga nemis tilidan bevosita tarjima qilingan nemis mumtoz yozuvchisi Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani (tarjimon Yanglish Egamova) tarjimalari olinadi. Tadqiqot qiyosiy-uslubiy metod asosida olib boriladi. Bu usul muallif va tarjimon uslubini va so‘z qo‘llashdagi mahoratini qiyosiy yo‘sinda to‘g‘ri ochib berish imkonini beradi.

Gyotening o‘z davriga xos uslubiy xususiyatlari tarjimada qanday aks etgan? Jumalarning tuzilishi va badiiy aniqlikni baholash muhim. Tarjimada nemis tilidagi ba‘zi murakkab gaplarning sodda qilib berilishi mazmunni yo‘qotmasligi kerak.

Gyotening romantikaga xos falsafiy mushohadalari va ruhiy holatlari tarjimada qay darajada ifodalangan?

- Struktural-analitik metod: Asarni strukturaviy jihatdan tahlil qilish, uning qismlarini va ularning o‘zaro aloqasini o‘rganish. Bu metod asar ichidagi tasviriy vositalarni, ularning o‘rnini va mazmunini aniqlashda yordam beradi.
- Psixologik metod: Asarda tasvirlangan personajlarning ruhiy holatini tahlil qilish, ularning ichki dunyosini va kechinmalarini o‘rganish. Verterning iztiroblarini, muhabbatdagi azoblarini, uning tabiat bilan o‘zaro aloqasini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishda qo‘llaniladi.
- Sotsial-tarixiy metod: Asar yaratgan davr va ijtimoiy kontekstni hisobga olgan holda tahlil qilish. Bu metod yordamida asarda tasvirlangan muhit va sharoitlarni o‘rganish, shuningdek, asarning tarixiy va madaniy ahamiyatini aniqlash mumkin.

- Simvolik metod: Asarda mavjud bo'lgan simvollarning tahlili, masalan, gullar, ranglar, tabiat elementlari orqali Verterning ruhiy kechinmalarini ochib berish.

Tadqiqotda I.V. Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asarida ranglarning va tabiat elementlarining tasvirini psixologik va struktural-analitik metodlar yordamida tahlil qilish rejalashtirilgan. Bu metodlar yordamida Verterning ruhiy holati, uning muhabbati va azoblari qanday tasvirlanganligi aniqlanadi va ularning estetik ahamiyati ochib beriladi.

Shu tarzda, adabiyotlar tahlili va metodlar bo'limida tadqiqotning nazariy asoslari va foydalaniladigan metodologiya taqdim etiladi. Bu bo'lim tadqiqotning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi va ishning umumiy yo'nalishini belgilaydi.

IV. NATIJALAR

"Yosh Verterning iztiroblari" romanida yosh Gyote o'sha davrdagi har taraflama ilg'or fikrli, zukko va sezgir qalbli yigitning go'zal kechinmalari, ehtiroslarini o'zida jamlagan qahramon obrazini yaratish bilan adabiyotda yangi shakl va yangi mazmun yaratish tarafdorlariga xos bo'lgan qirralarini ochib berdi.

Yuraklarni titratuvchi, larzaga soluvchi bu roman qahramoni – pokiza qalb egasi Verterning muhabbati, uning kechinmalarini o'zbek kitobxonlariga yetkazib bergan tarjimon Yanglish Egamova o'rnini alohida aytib o'tish joizdir.

Asarni o'qir ekanmiz, uning tilimiz xazinasidan ustalik bilan foydalanganligini ko'ramiz va tarjimonning badiiy mahorati va halol mehnati "Yosh Verterning iztiroblari" romanining o'zbek tilida muvaffaqiyat bilan qayta tiklanishini ta'minladi deb ayta olish mumkin. Fikrimiz dalili sifatida asardan bir necha misollar keltirib, ularda qo'llanilgan tasviriy vositalarni qiyosiy tahlil qilamiz:

Nemis tilida: *"Stern der dämmernden Nacht, schön funkelst du in Westen, habst dein strahlend Haupt aus deiner Wolke, wandelst stattlich deinen Hügel hin. Wornach blickst du auf die Heide?"* (20 dekabr)

O‘zbek tilida: “*Sokin tun yulduzi, sen ufqda jozibali jimillaysan, bulut ortidan nur sohib chiqsang-da, tepaga qarab mag‘rur suzib ketasan. Sen bo‘shliqda nimani axtaryapsan?*” (20 dekabr)

Nemischa matndagi tasviriy vositalar va ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi qiziqarli tahlilni talab qiladi, chunki tarjimada poetik ifodalar va tasvirlar asliyatdagi kabi boy va o‘ziga xos bo‘lishi kerak. “*Stern der dämmernden Nacht*”- “Shafaq vaqtidagi tun yulduzi” — bu yulduzning tunga aloqadorligi va uni tunning bir qismi sifatida tasvirlashda metaforik ifoda ishlatilgan. “*strahlend Haupt aus deiner Wolke*” (“bulut ortidan yorqin boshing bilan”) — yulduzning yorqinligini odam boshiga qiyoslash orqali ulug‘vorlikni ifodalaydi. O‘zbekcha tarjima “*Sokin tun yulduzi*” Bu metafora asliyatdagi ohangni saqlagan, lekin “dämmernden” (shafaq vaqti) ma’nosi “sokin” deb yumshatilgan. “*bulut ortidan nur sohib chiqsang-da*” Nemis tilidagi “yorqin bosh” qiyosi tarjimada “nur sochish” iborasi bilan almashtirilgan, bu esa mazmunni o‘zgartirmagan, lekin tasvir biroz sodda bo‘lgan.

Keltirilgan jumlada epitetlar ham qo‘llanilgach bo‘lib, ular quyidagicha tahlil qilinadi: “*schön funkelst*” (“chiroyli jimillaysan”) — yulduzning jozibasini ta’kidlaydi. “*strahlend*” (“yorqin”) — yorqinlikni ifodalovchi epitet. “*stattlich*” (“salobatli”) — yulduzning tantanavor harakatini tasvirlaydi. O‘zbekcha tarjimada bular “*jozibali jimillaysan*” - “*schön funkelst*” epiteti to‘g‘ri aks ettirilgan.

“*mag‘rur suzib ketasan*”- “Salobatli” (stattlich) sifatini “mag‘rur” deb tarjima qilish qisman mos tushadi, ammo tantanavorlik hissi biroz kamaygan.

Tasvirlar poetik, ulug‘vor, va aniq — yulduzning nur sochishi, jimirlashi, salobati va insoniy qiyofaga ega bo‘lishi bir butun tasvirni yaratadi. Tarjimon asarning asosiy mazmunini saqlagan bo‘lsa-da, tasvirlar yanada soddalashtirilgan va ayrim poetik jihatlar yumshatilgan. Asosiy mazmun saqlangan, ammo nemis tilidagi ba’zi chuqur ma’noli obrazlar yumshatilgan.

Epitetlar mos keladigan so‘zlar bilan tarjima qilingan, lekin ulug‘vorlik ohangi biroz pasaygan.

Tarjimada asosan saqlangan, lekin ayrim obrazlar qisman o'zgartirilgan.

Tarjimada asliyatga nisbatan soddalik kuzatiladi, bu esa ba'zi hollarda poetik ta'sirni kamaytirgan bo'lishi mumkin. Poetik tarjima qilishda asliyatdagi har bir tasvirni maksimal darajada saqlash matnning ruhini yanada yaxshiroq ifodalashga xizmat qilgan bo'lar edi.

Tarjimada epitetlarning ko'pchiligi saqlangan, ammo ba'zan o'zbek tilidagi so'z boyligidan foydalanib yangicha talqinlar berilgan.

Asliyatdagi o'xshatishlarning aksariyati tarjimada saqlangan, ammo ularning ba'zilari o'zbek tiliga moslashgan holda berilgan. Masalan,

Nemis tilida: *wenn da diese herrliche Natur so starr vor mir steht wie ein lackiertes Bildchen*

O'zbek tilida: *Mana shu ko'rkam tabiat xuddi suratdek jonsiz tuyuladi menga;*

"wie ein lackiertes Bildchen" — "xuddi laklangan suratdek". Bu qiyoslash tabiatni jonsiz va harakatsiz, go'yo hayotdan uzilgan bir suratga qiyoslab, undagi harakatsizlikni va sun'iylikni ifodalaydi. O'zbekcha tarjimada *"xuddi suratdek"* — tarjimada *"laklangan"* so'zi tushirib qoldirilgan. Natijada, qiyoslashning mazmuni umumiyroq bo'lib, asliyatdagi *"laklangan"* ta'sirni, ya'ni silliq, jiloli va lekin hayotsizlik tasvirini bermaydi. Tarjima qiyoslashni saqlagan, lekin *"laklangan"* detalining yo'qotilishi qiyosning ta'sirchanligini kamaytirgan. Nemischa matndagi *"laklangan"* tasviri tabiatning sun'iy ko'rinishdagi go'zalligini va ruhsizlikni yanada aniqroq tasvirlaydi.

"herrliche Natur" — "ko'rkam tabiat" yoki "ulug'vor tabiat". Bu epitet tabiatning go'zalligini, lekin shu bilan birga uning jonsiz va harakatsiz ko'rinishini ta'kidlaydi.

"starr" — "qotib qolgan", "harakatsiz". Tabiatning qotib qolgan va hayotsizligini ifodalovchi so'z

“*ko‘rkam tabiat*” — bu epitet nemischa matndagi “*herrlich*” so‘zining mazmunini yaxshi aks ettiradi.

“*jonsiz tuyuladi*”— tarjimada “*starr*” (qotib qolgan) so‘zining ma‘nosi “*jonsiz*” deb kengroq talqin qilingan.

Epitet tarjimada mazmunini asosan saqlagan. Ammo “*starr*” so‘zining “*jonsiz*” deb tarjima qilinishi biroz erkin yondashuv bo‘lib, asl matndagi qotib qolganlik, hayotsizlik va statik ko‘rinish ta‘sirini yumshatgan.

Yozuvchi tabiatning go‘zalligini “*herrliche Natur*” bilan tasvirlar ekan, uni harakatsiz, qotib qolgan va hayotsiz holatda tasavvur qilish uchun “*starr*” va “*wie ein lackiertes Bildchen*” o‘xshatishdan foydalanadi.

Tarjimada asliyatning asosiy mazmuni saqlangan. “*Ko‘rkam tabiat*” epiteti va “*xuddi suratdek jonsiz tuyuladi*” qiyosi asarning ruhini o‘zbekcha matnga moslashtiradi. Biroq “*laklangan*” va “*starr*” kabi tasviriy detallarni yo‘qotilishi asliyatdagi aniq va chuqur obrazni biroz soddalashtirgan.

Tarjima asosan asliyatning mazmunini yetkazadi, lekin poetik chuqurlikda biroz farq seziladi.

“*Laklangan*” va “*qotib qolgan*” detallarni tarjimada qo‘shish orqali asliyatdagi tasviriy kuchni to‘liq saqlab qolish mumkin. Masalan: “*Mana shu ko‘rkam tabiat xuddi laklangan suratdek qotib qolgan ko‘rinadi menga*”.

V. MUHOKAMA

Gyotening asarida tasviriy vositalar hissiy holatlarni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Tarjima jarayonida ushbu vositalarning o‘zbekcha ifodasi o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Tarjimon Gyote asarlarini doim mutolaa qilib, yozuvchi uslubining oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan sirlarini astoydil qidirib topa boshlagan va o‘z tarjimasida ham bu narsalarni aks ettira olgan.

Yosh Verterning iztiroblari (Die Leiden des jungen Werthers) Goethe tomonidan 1774-yilda yozilgan va Romantizm davrining muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Bu asar juda chuqur hissiy va intellektual iztiroblarni, ayniqsa yosh Verterning sevgi va qaygʻu bilan bogʻliq ruhiy holatini tasvirlaydi,. Goethe bu asarda metafora va epitetlardan samarali tarzda foydalangan, chunki bu badiiy usullar nafaqat asarning hissiy kuchini oshirishga, balki Verterning ichki iztiroblarini oʻquvchiga yanada chuqurroq yetkazishga yordam beradi.

Asarni oʻqir ekanmiz, unda koʻplab joylarda metaforalar maʼno va tasvirni kuchaytirish uchun qoʻllanilganiga amin boʻlamiz. Goethe Verterning ichki iztiroblarini va uning sevgi bilan bogʻliq his-tuygʻularini va tabiat tasvirlarini ifodalashda metaforalarni keng ishlatgan. Bu tasvirlar Verterning qalbida oʻtgan gʻazab, qaygʻu va iztiroblarini nafaqat oʻquvchi uchun, balki asosiy qahramonning oʻzi uchun ham yanada yaqqolroq qiladi. Tabiatni Verterning ruhiy holatiga moslashtirish orqali Goethe oʻquvchiga uning iztiroblarini koʻproq his qilishga yordam beradi. Masalan, Lotta bilan boʻlgan uchrashuvda tabiatdagi "shamol" yoki "yomgʻir" tasvirlari Verterning kutilgan umidi va qaygʻusini aks ettiradi.

Epitetlar esa asar davomida turli personajlar va ularning xulq-atvorini yanada aniqroq tasvirlashda ishlatilgan. Verterning haqiqiy his-tuygʻularini yoki boshqa personajlarning xarakterlarini ochib berish uchun ularning atrof-muhitlari va xatti-harakatlariga nisbatan qayd etilgan sifatlar keng qoʻllanadi.

Yanglish Egamovaning tarjimai Gyotening poetik uslubini aks ettirishga muvaffaq boʻlgan boʻlsa-da, baʼzi joylarda hissiyotning kuchi bir oz pasaygan.

Nemis va oʻzbek madaniyati oʻrtasidagi tafovutlar baʼzan tasviriy vositalarning toʻliq ifodalanishini qiyinlashtirgan. Tarjimada tushunarlik saqlanib qolgan, ammo badiiylilik darajasini oshirish uchun qoʻshimcha yondashuvlar kerak.

VI. XULOSA

Goethe Yosh Verterning iztiroblari asarida metafora va epitetlarni keng va samarali ishlatgan. Metafora Verterning ichki iztiroblarini, sevgi va qaygʻusini tasvirlashda asosiy

badiiy vosita sifatida ishlatilgan, uning hissiy holatlari va tabiat bilan aloqasini yanada chuqurroq ochib berdi. Epitetlar esa personajlarning ichki va tashqi sifatlarini, shu jumladan Verterning va Lotta obrazlarini yanada aniqroq tasvirlashda yordam beradi. Metafora va epitetlar yordamida Goethe asarining estetik kuchini oshirgan va o'quvchini Verterning ruhiy holatiga chuqurroq kirishga undagan.

Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” asarini tahlil qilishda tarjimon Yanglish Egamovaning uslubi muhim o'ringa ega. Tahlil davomida asardagi badiiy vositalarning tarjima jarayonida qanday o'zgargani yoki moslashgani aniq metodlar yordamida tadqiq qilinadi. Bu nafaqat tarjimonning mahoratini, balki tarjima asarining o'zbek adabiyotidagi o'rnini belgilashga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996. 21 b.
- Egamova Ya. Istedod va mehnat samarasi. Tashkent: Tarjima sanati, 1978. 3-11 b.
- Goethe, J. W. (1974). Die Leiden des jungen Werther. Leipzig: Reclam.
- Gyote, I. V. Yosh Verterning iztiroblari. Tarjimon Ya.Egamova. – «Yangi asr avlodi» nashriyoti, Toshkent, 2006.
- Gyote, I. V. Sobranie sochineniy. Tom shestoy. Stradaniya yunogo Vertera. / Perevod N.Kasatkinoy. – M.: Izdatel'stvo «Xudojestvennaya literatura», 1978.
- Знаменская Т. А. Стилистика английского языка. Основы курса. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С.37.
- Erkin Xudoyberdiyev., Adabiyotshunoslikka kirish., Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.,Toshkent.2008.
- Nazarova, Mashhura VERTER OBRAZI O'ZBEK TARJIMONI TALQINIDA // ORIENSS. 2022. № Special Issue 28-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/verter-obrazi-o-zbek-tarjimoni-talqinida> (дата обращения: 04.11.2024).
- Xonimqul T., Xabibullayevna N. M. XARAKTER TARJIMASIDA MANZARALAR O'ZBEKISTONDA // XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR. – 2024. – T. 1. – №. 2. – С. 351-354.
- Nazarova M. Bruno Apitsning “Qashqirlar changalida” romani tarjimasida badiiy tasviriy vositalarning aks etishi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 5 (46). — B.137-150.